

**RAQOBAT VA MONOPOLIYANING MOHIYATI**

**Saitov Sirojiddin**

*O‘zMUJF o‘qituvchisi*

**Xaydarov Bahrom**

*O‘zMUJF o‘qituvchisi*

**Rayimberdiyev Sahob Sobir o‘g‘li**

*O‘zMUJF talabasi*

*Annatsiya: Ushbu maqolada raqobat va monopoliya mohiyati haqida. Raqobat va monopoliyaning afzalliklari va kamchiliklari. Iqtisodiy o‘shda raqobatning ahamiyati qandayligi haqida. Raqobatning salbiy tomonlari bormi?. Monopoliya iqtisodiyotga salbiy tomonlari va monopoliyaga qarshi kurashning qanday usullar qullanilgan va yana qanday choralar ko‘rish mumkinligi haqida bilib olishingiz mumkin.*

**Kalit so‘z:** *provard, kartellarta.*

**Annotation:** *This article is about the nature of competition and monopoly. The advantages and disadvantages of competition and monopoly. About the importance of competition in economic growth. Are there any negative aspects of competition? You can learn about the negative aspects of monopoly on the economy and what methods have been used to fight against monopoly and what other measures can be taken.*

**Key words:** *cartels, provard.*

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bundan ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat provardida iste‘molchilarni o‘ziga jalb etish uchun kurashni ham anglatadi. Raqobatning ham ijobiy ham salbiy jihatlari mavjud. Raqobatning ijobiy tomonlari tomonlari u resurslari samarali taqsimlanishiga va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, raqobatda iste‘molchilar talabi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘nalishiga xizmat qiladi.

Raqobat tadbirkorlarni yangi texnologiyalarini jalb etishga undaganligi sababli ilmiy-texnikaviy rivojlanishga turtki bo‘ladi. Bundan tashqari, raqobatning eng muhim xususiyatlarudan biri shundaki, bunda eng asosiy e‘tibor tadbirkorlarning shaxsiy mustaqilligiga qaratiladi. Faqat raqobatgina iqtisodiy faoliyatni ma‘muriy boshqarishsiz



ham muvofiqlashtirishi mumkin va bu tadbirkorlar manfaatlarini to‘laroq qondirishga imkoniyat yaratib beradi.

Iqtisodiy rivojlanishni raqobatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Keng ma‘noda qaralganda, barcha sohalarda, iqtisodiyotning barcha jihatlarida kishilar o‘z manfaatlarini qondirish uchun kurashdilar, ya‘ni o‘zaro raqobat qilishiga intiladilar. Har bir Iqtisodiyotdagi kabi bozor sharoitida ham kishilarning hohish irodasi, malakasi va tafakkuriga bog‘liq bo‘g‘liq bo‘lmagan o‘ziga xos obyektiv qonuniyatlar mavjud. Raqobat kurashi ma‘lum bir tizimga ega emas, shunga qaramasdan u bozor ishtirokchilarining aniq ifodalangan strategiyalariga asoslangan va bu strategiya ularni bozordagi qiziqishlarini ximoya qiladi. Uzoq vaqt davomida "raqobat" tushunchasi ikki yoki undan ortiq shaxslarning yagona maqsad-yuqori foyda olish uchun mustaqil ravishda bir-biri bilan bellashuvi deb qaralib kelingan

Demak, raqobat-bu zamonaviy jamiyat tomonidan shakllantirilgan qonunchilik va axloqiy tamoyillarga zid bo‘lmagan xaridor uchun kurash usullari. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ushbu hodisaning bir qator salbiy tomonlari ham bor, ularning eng dolzarblari quyidagi ro‘yxatda tasvirlangan:

Raqobat bozorda bir necha yillardan beri saqlanib qolgan barqaror vaziyatni buzadi. Hatto juda yirik va taniqli kompaniyalar ham korporatsiya taklif qilgan narsadan ko‘ra ko‘proq mijozlarga yoqadigan brend yoki xizmat paydo bo‘lsa, zarar ko‘rishlari mumkin.

Ana endi monopoliyaning tomonlarini kurib chiqsak. Monopoliyaning salbiy tomonlari: Ishlab chiqaruvchining kompaniyasining narxini ishlab chiqaruvchiga ta‘sir ko‘rsatmaydigan final xaridorga o‘tish qobiliyati. Bunga narxlar ortib borayotganligi sababli, aholining hayotiy darajasini pasaytiradigan narxlar ko‘payib bormoqda. Albatta har narsaning bir yaxshi bir yomon tomoni bo‘lganidek, monopoliyaning ham bir qancha ijobiy tomonlari bor. Unig ijobiy tomoni asosan, quyidagi ikki jihat orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, u ma‘lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, monopolist bo‘lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko‘proq rag‘bat va imkoniyat mavjud bo‘ladi. Chunki uncha yirik bo‘lmagan raqobatlashuvchi korxonalarining odatda, moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ular ishlab chiqarishga yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko‘ra, ko‘proq joriy daromadga e‘tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g‘oyalar raqiblar tomonidan juda tez o‘zlashtirib olinadi va buning oqibatida, mazkur g‘oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgan holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo‘lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi.

Uchinchidan, ba‘zi bir sohalarda monopoliya sohaning barqaror va uzluksiz ishlashini ta‘minlab bera oladi. Shu sababdan ham bu sohalarda monopoliyaning vujudga kelishi



davlat tomonidan ham ta'minlab beriladi. Raqobat bu sohalar faoliyatini buzishi yoki izdan chiqarishi mumkin. Bunga misol qilib elektr energiyasi, gaz, suv kabi komunal sohalarni keltirishimiz mumkin. Ammo hozirgi kunda dunyoning bir nechta rivojlangan davlatlarida bu sohalarning monopoliyadan chiqarilishi holatlarini kurishimiz mumkin.

**MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSAT**- davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati. Dunyo tajribasiga ko'ra, Monopoliyaga qarshi qonunchilik, asosan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha shakllanadi. Birinchidan, ishlab chiqarishni bashqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxonaning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig'ini nazorat qilishga huquq berilmaydi. Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma'lum cheklangan miqdoridan ortig'iga ega bo'la olmasligi belgilab qo'yiladi. Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqiqlovchi kartellarta karshi qonunlari joriy qilinadi.

**Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki:** O'zbekistonda monopoliya asoslangan har hil sohalar mavjud bo'lib ularning ba'zilari raqobatsiz rivojlangani maqul busa qolganlari rivojlanishi uchun albatta raqobat zarur. Lekin u sohalarga raqobatchi sohalar topilmagani sababli uz mahsulotlari bilan bozorni egallashgan, va uzlari hohlagan narx bilan uz tovar va xizmatlarini iste'molchilarga taqdim etishmoqda. Bu sohalarga raqobatchilarni yaratish uchun davlat huddi usha sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatini boshlaganlar uchun har hil imkoniyatlar yaratib berishi kerak masalan: subsidiyalar, soliqlarda ma'lum miqdorda cheklovlar quyish, va shu sohani boshlamochi bo'lgan insonlarga ma'lumot, kumak berilishi kerak. Aksincha raqobatsiz rivojlanadigan sohalar uchun ham shart sharoitlar yaratilishi zarur masalan: shu sohani urnini bosuvchi tovarlar va xizmatlar chetdan kirib kelishini kamaytirish yoki shu soha bo'yicha tovarlar va xizmatlar kirib kelishiga to'lovlar amalga oshirilishi va shu kabi sharoitlar yaratish mumkin. Lekin bu soha egalariga ham erkinlik berib yuborilmasligi, bozorda tovarlari yetishmasligi kuzda tutlimasligi uchun davlat tomonidan shartlar quyilishi mumkin masalan: bir hududda uz faoliyatlarini olib borilayotgan bulsa u tovar yoki xizmat yetishmasligi mumkin buni oldini olish uchun shu sohada faoliyat olib borayotgan shaxslar uchun yana 2 ta yoki 3 ta viloyat yoki hududda ma'lum vaqt ichida o'z fealiallarini ochish va chetga ham o'z tovarlarini eksport qilish shartlari buyicha faoliyatlarini olib borishsa davlat uchun ham shu soha uchun ham juda samarali hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 634–635. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390>



2. Baxrom Xolmurodovich Xaydarov, Sirojiddin Abduvaliyevich Saitov RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA // Academic research in educational sciences. 2022. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-tushunchasi-afzalliklari-amaliy-ahamiyati-va-xorijiy-tajriba> (дата обращения: 29.11.2022).

3. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.

4. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 105-110.

5. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1A. – С. 56-59.

6. O'G'Li N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1-4.

7. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

8. G'aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.

9. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.

10. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.

11. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

12. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.

13. Muxtarov B., Murotjonova M. O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub 'ektlarining rivojlanishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 581-584.



14. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – C. 33-34.

15. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.

16. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.

17. G'aybullayev S. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.

